
SHAHAR HOKIMLIGIDA 2024YILNING 6 OYI DAVOMIDA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI BILAN ISHLASH NATIJALARI YUZASIDAN XISOBOT

Shahar hokimligiga 2024-yilning 6 oyi davomida barcha manbaalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan jami **272 ta** (310 ta) murojatlar shundan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi **116 ta** (125ta), Halq qabulxonasi orqali **92 ta** (79 ta), Bosh Prokuratura ishonch telefoni orqali **14 ta** (15 ta), Vazirlar Mahkamasi orqali **4 ta** (0 ta) va shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri **46 ta** (91 ta) yozma murojaatlar kelib tushgan. (Bu ko'rsatgich 2023 yilning shu davrida 310 tani tashkil etib,38 taga yoki 12,2% kamaygan). Xususan, mazkur murojaatlarning **124 tasi** (45,6%) ijobiy hal etilgan, **134 ta** (49,3%) murojaatga qonuniy tushuntirish berilgan, **14 ta** (5,1%) murojaat o'rganish jarayonida.

Murojaatlar sohalar kesimida tahlil etilganda, Moddiy yordam ajratish **62 ta**, Boshlang'ich to'lovsiz uy-joy olish masalasida **56 ta**, Yo'llarni ta'mirlash masalasida **39 ta**, Obodonlashtirish masalasida **28 ta**, Tungi yoritish chiroqlari o'rnatib berish masalasida **16 ta**, Yer maydonlarni sug'orish masalasida **16 ta**, Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida **13 ta**, Xonadonni ta'mirlash masalasida **5 ta**, Raxbarlar faoliyati hamda Ish bilan ta'minlash masalalarida **3 tadan**, Noqonuniy qurilmalarni bartaraf etish, Daftarga (*Temir, Ayollar, Yoshlar*) kiritish va Qishloq xo'jaligi masalalarida **2 tadan** hamda Turli masalalarda **25 ta** murojaatlar qayd etilgan.

Eng ko'p murojaatlar shaharning Ziynat **35 ta** (12,9%), Pakana **21 ta** (7,7%), X.Olimjon **20 ta** (7,3%), Qo'chqorchi **19 ta** (6,9%), Yoshlik **16 ta** (5,9%), Guliston **14 ta** (5,1), Bog'bon **13 ta** (4,8%), Do'stlik **11 ta** (4,0%), Arsif **10 ta** (3,7%), Yu.Mo'yan **9 ta** (3,3%), Polmon **8 ta** (2,9%) mahalla fuqarolar yig'inlariga to'g'ri kelmoqda.

Joriy yilning 6 oyi davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasi orqali jami **208 ta** murojaat yuborilgan bo'lib, mazkur murojaatlarning **90 tasi** (43,3%) ijobiy hal etilgan, **106 tasiga** (50,9%) amaldagi qarorlar asosida xuquqiy tushuntirish berilgan, **12 tasi** (5,8%) o'rganib chiqish jarayonida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxoansi orqali **116 ta** murojaat qayd etilgan bo'lib, shundan **49 tasi** (42,2%) ijobiy hal etilgan, **59 tasiga** (50,9%) tushuntirish berilgan, **8 tasi** (6,9%) o'rganib chiqish jarayonida.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi orqali **92 ta** murojaat yuborilgan bo'lib, shundan **41 tasi** (44,6%) ijobiy hal etilgan, **47 tasiga** (51,1%) qonuniy tushuntirish berilgan, **4 tasi** (4,3%) o'rganib chiqish jarayonida.

Joriy yilning 6 oyi davomida shahar hokimi Z.To'prakulov tomonidan **22 marotaba** shaxsiy hamda **26 marotaba** ommaviy sayyor qabul o'tkazilib, qabullar davomida jami **313 nafar** fuqarolarning murojaatlari ro'yxatga olingan. Shundan, **141 nafar** (45,0%) fuqaroning murojaatlari ijobiy hal etildi, **172 nafar** (55,0%) fuqaroning murojaatlarga amaldagi qonun va qarorlar asosida huquqiy tushuntirishlar berilgan.

2024-04-03 10:34:38